

## RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TAJRIBALARI (Finlandiya misolida)

*Elmuradova Surayyo Abdijalilovna*

*Samarqand davlat chet tillari instituti assistent o'qituvchisi.*

90.605.77.17 [elmurodovasurayyob@gmail.com](mailto:elmurodovasurayyob@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda dunyoda dolzarb bo'lib turgan ta'limni rivojlantirish, ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish maqsadida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning xorijiy tajribalari (Finlandiya) o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** sifat, ta'lim, kompetensiya, ekspert, standart, xalqaro tajriba, inspeksiya

**Абстрактный.** В данной статье изучается зарубежный опыт (Финляндия) контроля качества и управления образованием с целью усиления требований к развитию образования, которые актуальны сегодня в мире.

**Ключевые слова:** качество, образование, компетентность, эксперт, стандарт, международный опыт, проверка.

**Abstract.** In this article, foreign experiences (Finland) of quality control and management of education are studied in order to strengthen the requirements for the development of education, which are relevant in the world today.

**Key words:** quality, education, competence, expert, standard, international experience, inspection.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish eng dolzarb masalalardan biridir. Chunki mamlakatimizning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yuqori malakali yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojlanishiga bog'liq.

Davlatimiz ta'limi keng qamrovli hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshdan kechirmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad ta'lim faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv tarbiya ishlarini mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Shuning uchun bu vazifani muvaffaqiyatli hal etish muhim shartlaridan biri chet el ta'lim va pedagogikasi tajribalarini o'rganishdir. Xalqaro tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari,

uslublaridan xolos bo`lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo`shimcha boy manbalarga ega bo`lamiz.

2019 yil 26 noyabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021 yilgacha maktablarning kamida 3 foizi, 2025 yilgacha 20 foizi, 2030 yilgacha esa 50 foizini “Zamonaviy maktab”larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi. Prezidentimiz shu yili yanvar oyida Oliy Majlisga yo`llagan murojaatnomasida maktab o`quv dasturlarini ilg`or horijiy tajriba asosida takomillashtirish, o`quv yuklamalarini qayta ko`rib chiqish ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini ta`kidladi.

Ma`lumki so`ngi paytlarda ta`lim tizimiga oid xalqaro tajribalarda Finlandiyadagi ta`lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizim ekanligi e`tirof etilmoqda. Sababi Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) tomonidan har uch yilda bir marta o`tkaziladigan Xalqaro Talabalarni Baholash Dasturi (PISA)da Finlyandiya 2000 yildan buyon muntazaam qatnashib kelmoqda. Xalqaro Talabalarni Baholash Dasturi (PISA) natijalariga ko`ra aksariyat hollarda fin talabalari AQSH va Britaniya talabalaridan yuqoriroq natijalar qayd etishi va erishgan natijalari bilan fin ta`lim tizimi dunyodagi ko`plab mamlakatlarning e`tiborini o`ziga jalb qilmoqda. Shu bois respublikamiz Ta`lim inspeksiyasi tomonidan ham barcha ta`lim vazirliklari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan “Uzluksiz ta`lim” konsepsiyalari loyihasida ko`plab mamlakatlar qatorida Finlyandiya tajribasidan ham foydalanish maqsad qilib olingan.

Ho`sh, Finlandiyadagi ta`lim tizimi bunday yutuqlarga qanday erishdi?

Bu savolga javob berishdan oldin avvalo, Finlandiya davlati haqida ham qisqacha ma`lumot berish joiz.

Finlandiya Respublikasi Shimoliy Yevropada joylashgan davlat. Maydoni 337 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 8 mln. kishi (2023). Poytaxti — Helsinki shahri; Tampere ikkinchi yirik shahar. Ma`muriy jihatdan 5 lyani (guberniya) ga bo`linadi. 1919-yil Finlandiya respublika deb e`lon qilindi 1981-yildan o`zini o`zi boshqarish maqomini olgan BMT a`zosi Finlandiya —yuksak darajada rivojlangan industrialagrar mamlakat. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 32%, qishloq xo`jaligi, o`rmon va baliq xo`jaliginiki 5%, xizmat ko`rsatish sohasiniki 63% ni tashkil etadi.

Ana endi Finlandiyada ta`lim tizimidagi o`ziga oxs jihatlariga to`xtaladigan bo`lsak, Finlandiyada 1968-yilgi qonuniga binoan, yagona umumiy ta`lim tizimiga o`tish 1980-yilda nihoyasiga yetkazildi. Majburiy ta`lim — 9 yillik. Majburiy maktab negizida 3 yillik katta o`rta maktab tashkil etilgan. Davlat, munitsipal va xususiy hunar bilim yurtlari va maktablarida quyi xunartexnika ta`limi, texnika, pedagog, tijorat institutlarida o`rta maxsus ta`lim beriladi.

Ularning ta`lim tizimini o`rganishlar shuni ko`rsatmoqdaki, Finlyandiya maktablarining o`quv dasturlari bolalarga berilayotgan har qanday bilimlarni

amaliyotga qanday va qayerda qo'llashni o'rgatishga, ularni ijodiy va erkin fikrlashga undashga yo'naltirilgan.

Ikkinchi muhim tomoni, Finlyandiya fan dasturlarida o'zaro mutanosiblik juda yaxshi ta'minlangan. Masalan, biron sinfda geografiyadan Osiyo mamlakatlari o'tilsa, o'sha haftada biologiyadan ham Osiyoda o'suvchi o'simliklar, tarixdan ham Osiyo xalqlari tarixi, matematikadan ham Osiyoga oid ma'lumotlardan iborat misollar beriladi.

Uchinchi muhim jihat – o'qituvchilarning yuqori salohiyatga ega ekanligi fin ta'lim muassasalarining muvaffaqiyatga erishishidagi navbatdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Finlyandiyada o'qituvchilik qilish uchun kamida magistr darajasiga ega bo'lish kerak. Fin o'qituvchilari dunyodagi eng malakali mutaxassislardir. Finlyandiyada o'qituvchilikka bo'lgan talablar juda yuqori. O'qituvchilari xuddi shifokorlar va yuristlar kabi maqomga ega. Ularning ijtimoiy mavqei ham juda yuqori. Fin o'qituvchilarining bu qadar ulkan mavqega egaliklari o'qituvchi kasbiga bo'lgan talabning yuqoriligi hamda malaka imtihonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Shuning uchun Finlyandiyada ular o'z o'qituvchilarini doimiy ravishda baholash va baholab borish zaruratini sezmaydi. Agar o'qituvchidan qandaydir xato yoki kamchilik o'tadigan bo'lsa, u bilan maktab direktorining o'zi shug'ullanib qo'ya qoladi.

Shuningdek, expert guruhlar Finlandiya ta'lim tizimi erishgan yutuqlari yana quyidagi o'ziga xos jihatlarga ega ekanligini ta'kidlamodalar:

1. Finlyandiya bolalari ta'limni boshqa mamlakatlarnikiga nisbatan kechroq boshlaydi. Ular 7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinadi. «Bolalarni haddan ziyod erta maktabga berish ilmiy jihatdan foydali emasligi tasdiqlangan», deyiladi fin tizimida.

2. Finlyandiyada majburiy ta'lim 9 yil davom etadi, o'quvchilar 16 yoshdan o'qishni tark etishi mumkin. Ushbu g'oya Finlyandiya talabalarini haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan.

3. Finlyandiya talabalarini rivojlangan mamlakatlar ichida eng kam dars soatlarini o'qiydi (darslar 8-9 oralig'ida boshlanib, kunduzgi 2 gacha yakunlanadi), shunga qaramay juda yaxshi natijalar qayd etadi.

4. Finlyandiyadagi maktablar hech qanday tartibda joylashmagan, maktablar, mintaqalar, o'qituvchilar va hatto talabalar o'rtasida taqqoslashlar mavjud emas. Ular raqobat emas, aynan hamkorlik muvaffaqiyat kaliti, deb hisoblashadi.

5. Bir fanning boshqalaridan chuqurroq o'rgatilishi maqsadga muvofiq emas. U yerda, masalan, matematika san'atdan muhimroq hisoblanmaydi. Aksincha, qobiliyatli bolalar uchun alohida sinflar tashkil qilinishiga yagona sabab ularning tasviriy san'at, musiqa va sportga moyilligi bo'lishi mumkin.

6. Finlyandiya o'z ta'lim tizimini isloh qilishda boshqa mamlakatlar ta'lim tizimidan farqli ravishda o'z bolalariga maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi

imkoniyatlaridan foydalanishda teng sharoitlar yaratishni bosh maqsad deb bilgan. Finda barcha maktablar davlat mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladi. Mamlakatda na elita va na "boʻshroq" maktablar bor. Finlyandiya'dagi eng yirik maktabda 960 nafar oʻquvchi taʼlim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Shu bois qayerdadir yaxshi, qayerdadir sustroq taʼlim berilishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Yaqin vaqtlargacha finlarga maktab tanlash taqiqlangan edi, bolalar shunchaki eng yaqin oradagi maktabga chiqishardi. Taqiq bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi taʼlim muassasasiga berishni maʼqul koʻrishmoqda, zero Finlyandiya'da barcha maktablar birdek yaxshi.

7. Finlyandiya talabalari koʻproq tillarni oʻrganishadi. Ular fin tilini maktabdagi birinchi kundan oʻrganadi. 9 yoshida ular shved tilini oʻrganishni boshlaydi. 11 yoshida ular uchinchi tilni (odatda ingliz tilini) oʻrganishga ragʻbatlantiriladi. Koʻplab oʻquvchilar 13 yoshida toʻrtinchi tilni oʻrganayotgan boʻladi.

8. Finlyandiya maktablari barcha oʻquvchilarining tushligi davlat tomonidan qoplab beriladi. Bundan tashqari ekskursiyalar, oʻquv qurollari bilan ham bepul taʼminlanadilar. Maktabga 2 kilometr dan ortiq masofadan qatnovchi oʻquvchilar uchun bepul avtobus ajratiladi. Barcha harajatlar davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. 1943 yildan buyon mazkur amaliyotga amal qilib kelinmoqda.

9. Oʻqituvchilar odatda kuniga 4 soatdan mashgʻulot oʻtkazadi va har hafta ularga kasbiy rivojlanish uchun 2 soat vaqt ajratiladi. Bu esa, oʻz navbatida, muallimlarga tushadigan stressni kamaytiradi.

10. Finlyandiya milliy oʻquv dasturi keng qoʻllanma boʻlib, oʻqituvchilarga oʻz uslubi va fikrlarini sinfda ishlatishiga imkon beradi. Bu Finlyandiya taʼlim tizimining oʻz oʻqituvchilariga boʻlgan ishonchiga asoslanadi.

11. Maktabga oʻquvchilar oʻzlariga qulay boʻlgan har qanday kiyimda kelishlari mumkin. Maxsus talablar qoʻyilmagan. Odatda fin maktablarida oʻquvchilar sinf xonasiga hatto poyabzalsiz ham kiraveradilar.

12. Dars paytida oʻquvchilar ixtiyoriy ravishda - partaga, divanga, gilamga yoki polga joylashishlari mumkin. Iliq havoda darslar tabiat qoʻynida tashkil qilinadi.

13. Fin oʻqituvchilari bolalar maktabdan tashqari vaqtda dam olishlari va vaqtlarini ota-onalari bilan oʻtkazishlari kerak, deb hisoblashadi. Uy vazifalari juda kam vaqtga moʻljallanadi. Masalan, tarix darsida buvisi bilan 50-yillar hayoti haqida suhbatlashib, uni bugungi davr bilan solishtirish vazifasi berilishi mumkin.

14. "Doska oldida" oʻqitish usuli qoʻllanmaydi, bolalar materialni soʻzlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. Oʻqituvchi darsga umumiy tus beradi, soʻngra oʻquvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi. Oʻqituvchining yordamchisi (fin maktablarida oʻqituvchi yordamchilari ham boʻladi) ham xuddi shu ish bilan band boʻladi.

14. Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha o'chirish mumkin. O'qituvchi ham vazifani qalamda tekshirishi mumkin.

15. Finlandiyada bolalarga bo'lgan ishonch: darslarda o'quvchi o'zini qiziqtirgan ish bilan shug'ullanishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida o'quv filmi namoyish etilayotgan bo'lsa-yu o'quvchiga buning qizig'i bo'lmasa, u kitob o'qib o'tirishi mumkin. O'quvchi o'zi uchun nima foydali ekanini o'zi tanlaydi.

16. O'qishni istagan odam o'qiydi. Pedagoglar o'quvchining e'tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o'rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo'lmasa, darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi", bolani kelgusida uncha murakkab bo'lmagan, amaliy jihatdan foydali bo'lgan kasbga yo'naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarishi kerak-ku, axir!

17. Bunga ham o'rta maktabda chora ko'riladi - muayyan o'smir litseyda bilimlarini davom ettirishi kerakmi yoki olgan bilimlari yetarlimi, professional kasb-hunar maktabiga borish kerakdir, ehtimol. Ta'kidlash joizki, bu ikki yo'l ham mamlakatda birdek qadrlanadi. Har bir bolaning u yoki bu faoliyatga moyilligini aniqlash "kelajak o'qituvchisi" tomonidan test va suhbatlar yo'li orqali amalga oshiriladi.

### **Finlandiya maktablarida qaysi fanlar o'qitiladi va nima o'rganiladi?**

#### **1–2 sinf:**

Ona (fin) tili va o'qish, matematika, tabiat, din (e'tiqodiga qarab) yoki hayotiy tushunchalar (dinga qiziqmaydiganlar uchun), musiqa, tasviriy san'at, mehnat va jismoniy tarbiya. Bir darsda biryo'la bir necha fan o'tilishi mumkin.

#### **3–6 sinflar:**

Ingliz tili o'rgatila boshlanadi. 4-sinfda - tanlov asosida yana bir chet tili: fransuz, shved, nemis yoki rus tillari. Qo'shimcha fanlar kiritiladi (tanlov asosida, har bir maktabda har xil): klaviaturada ishlash tezligi, kompyuter bilimlari, daraxt bilan ishlash, xor ijrosi. Deyarli barcha maktablarda musiqiy asboblarda o'ynashni o'rgatishadi, bolalar 9 yillik ta'lim davomida barcha musiqiy asboblarida o'ynashni mashq qilib ko'rishadi.

5-sinfda biologiya, geografiya, fizika, kimyo va tarix qo'shiladi. 1-sinfdan 6-sinfgacha deyarli barcha fanlardan bir o'qituvchi kiradi. Jismoniy tarbiya darsi haftada 1-3 marta istalgan sport o'yini shaklida o'tadi (maktabning tanlovi asosida). Darsdan keyin dush qabul qilish majburiy. Adabiyot bizning tushunchamizdagidek o'qitilmaydi, bu ko'proq shunchaki o'qishni eslatadi. Fan o'qituvchilari faqat 7-sinfdan kira boshlaydi.

#### **7–9 sinflar:**

Fin tili va adabiyoti (o'qish, o'lka madaniyati), shved, ingliz tili, matematika, biologiya, geografiya, fizika, kimyo, salomatlik asoslari, din (yoki hayotiy tushunchala musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, tanlov asosidagi fanlar va mehnat (o'g'il va

qiz bolalar ajratilmaydi). Barcha birdek sho'ruva tayyorlashni va arralashni o'rganadi. 9-sinfda ikki hafta davomida "mehnat hayoti" bilan tanishiladi. Bolalar o'zlari uchun istagan "ishchi o'rni"ni topib, katta ishtiyoq bilan "ishga" borishadi.

### **Baholash mezoni qanday?**

Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so'zda baho qo'yiladi: o'rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko'rinishdagi baholar yo'q. Baho - faqat motivasiya vositasi sifatida qaraladi. Fin maktablarida baholar xavotir uyg'otmaydi, ular faqat o'quvchining o'zi uchun kerak, qo'yilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va o'zini tekshirish uchun qo'llaniladi. Baholar o'qituvchi, maktab nufuziga ta'sir ko'rsatmaydi va hech qanday ko'rsatkichlarini buzmaydi.

Fin o'qituvchilarining fikricha, o'quvchilarni yo hayotga, yo imtihonga tayyorlash lozim. Ular birinchisini tanlashadi. Shu sababli Finlandiya maktablarida imtihonlar yo'q. O'qituvchi o'z xohishiga ko'ra nazorat ishlari o'tkazishi mumkin. Lekin o'quvchilar 16 yoshda - o'rta maktabni tamomlash oldidan standartlashtirilgan test topshirishadi.

Finlyandiya barcha maktablar «Wilma» davlat elektron tizimiga ulangan, bu elektron maktab kundaligidek gap, har bir ota-ona unga kirish uchun shaxsiy kodga ega. Pedagoglar baho qo'yib, davomatni belgilab, bolaning maktabdagi hayoti haqida xabar berib borishadi; shuningdek psixolog, ijtimoiy xizmatchi, "kelajak o'qituvchisi", feldsher ham u yerda kerakli ma'lumotni qoldiradi.

Umuman olganda, Finlyandiya maktabida ta'lim jarayoni yumshoq, biroq bu maktabni jiddiy qabul qilmasa ham bo'ladi, degani emas. Maktab rejimiga rioya qilish majburiy. Barcha o'tkazib yuborilgan darslarda qayta o'tirishga to'g'ri keladi. Masalan, o'qituvchi 6-sinf o'quvchisi uchun o'z jadvalidan "bo'sh soat"ni belgilaydi yoki 2-sinfning darsiga kirib o'tiradi. Dars qiladimi, zerikib o'tiradimi, o'ziga havola. Kichik yoshlilarga xalaqit bersa, bu hisobga o'tmaydi, yana boshqa soatda qayta o'tirishga to'g'ri keladi.

O'qituvchi bergan vazifani bajarmagan, darsda ishlamagan bolaning ota-onasi maktabga chaqirtirilmaydi, tanbeh ham berilmaydi, aqliy qoloqlikda ayblanmaydi ham. Agar ota-ona ham farzandining bunday xatti-harakatlariga befarq qarasa, bola shunchaki keyingi sinfga o'tmaydi.

Finlyandiya bir sinfdan ikkinchi yilga qolish uyat hisoblanmaydi, ayniqsa 9-sinfdan keyin. Katta hayotga jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim, shuning uchun fin maktablarida qo'shimcha (majburiy emas) 10-sinf bor.

Finlyandiya maktablaridagi ta'lim tizimi qisqa satrlarda mana shunday. Ehtimol, u kimgadir noto'g'ridek tuyulishi mumkin. Zero, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo'lishi mumkin. Ammo finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi. Fin bolalari kitoblar

mutolaa qilishadi, tarjimasiz (original tilda) filmlar ko'rishadi, kompyuter o'yinlari o'ynashadi, rolik va velosipedlarda uchishadi, musiqa va teatr pyesalari yaratishadi, qo'shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida ta'lim olishga ham ulgurishadi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Elmuradova S.A. Ta'lim samaradorligini oshirishning ijtimoiy-falsafiy omillari. PEDAGOGS. Internatioanl research journal. SJIF: 4.995, Volume-9, Issue-2, ISSN:2181-3027., May-2022.
2. [Elmuradova S.A.](#) Ta'lim madaniyati: shakllanish va rivojlanishning falsafiy metodologik asoslari. PEDAGOGS international research journal. – ISSN 2181-3027, www.pedagoglar.uz, Volume 9, Issue 2, SJIF 4.995, May–2022, -B. 115-117.
3. Elmuradova S.A. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tajribalari. SamDU.– Samarqand, 2022. - №4 (134), - B 157-163.